

TA'LIM JARAYONIDA NAZARIY BILIMLAR VA AMALIY KO'NIKMALAR INTEGRATSIYASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19186416>

Xamalova Feruza Yunusovna

Farg'ona viloyati Pedagogik mahorat markazi

katta o'qituvchisi, tel: (+998) 916807894, e-mail: feruzaxamalova@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim jarayonini tashkil etishda nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar integratsiyasini ta'minlashda o'quv maqsadlarining qo'yilishi va amaliy metodlar, hamda zamonaviy yondashuvga e'tibor qaratilgan, xulosa va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *Bilim, amaliy ko'nikma, o'quv maqsadlari, interfaol metod, loyiha, tadqiqot, mustaqil fikrlash, integratsiya;*

Аннотации

В данной статье рассматриваются вопросы постановки учебных целей и практических методов, а также современный подход к обеспечению интеграции теоретических знаний и практических навыков при организации современного образовательного процесса, и приводятся выводы и рекомендации.

Ключевые слова: *Знания, практические навыки, цели обучения, интерактивный метод, проект, исследование, самостоятельное мышление, интеграция.*

Annotation

This article focuses on the setting of learning goals and practical methods, as well as a modern approach to ensuring the integration of theoretical knowledge and practical skills in organizing the educational process today, and provides conclusions and recommendations.

Keywords: *Knowledge, practical skills, learning objectives, interactive method, project, research, independent thinking, integration.*

Bugungi kunda dunyo miqyosidagi o'zgarishlar, fan, texnikaning tez suratlarda rivojlanishi jarayonida ta'lim-tarbiya sohasining dolzarb vazifalaridan biri o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdan iborat. Tez ozgarayotgan dunyoda, axborot muxitida, turli kutilmagan vaziyatlarda mustaqil fikrlash ko'nikmalari juda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarda mustaqil fikrlashga, hayotga tayyorlashga ko'maklashish uchun yosh avlodga olgan nazariy bilimlarini hayotda qo'llay olishlarini, bilimlardan foydalana olish va hayotiy vaziyatlarda tatbiq eta olishlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuv hamda metodikalarni qo'llash muhim hisoblanadi. Ta'lim jarayonida nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar integratsiyasini ta'minlash uchun o'quv maqsadlarini belgilashda zamonaviy yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi.

O'qitishning kutilayotgan natijalarini ishlab chiqishda zamonaviy psixologik yondashuvlar qadim davrlardayoq yaratilgan bo'lib, Aristotel ta'lim maqsadlarining uchta asosiy kategoriyasini, ya'ni tafakkur, sezish qobiliyati va qo'l amallarini bir-biridan farqlagan. Pestalotsti esa bu amallarga muvofiq inson tanasining uch organini keltiradi: bosh, yurak va qo'l.

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

Ta'lim maqsadlari-bu muayyan ta'lim jarayoni yakunida ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi, yangi hosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni oldindan belgilash mahorati hisoblanadi.

O'quv maqsadlarining yo'nalishlari

Ta'limiy (bilishga, tafakkur sohasiga oid maqsadlar)

O'rganilgan materialni eslab qolish va tiklashdan to muammoni yechishga qadar maqsadlar, ya'ni dasturda, qo'llanmada, o'qituvchining kundalik amaliyotida qo'yilayotgan o'qitish maqsadlari kiradi. Ushbu soha maqsadlari «O'quvchi nimani o'ylaydi va bilib oladi?» degan savolga javob beradi. Bunda o'quvchining avval egallagan bilimlarini hisobga olish lozim.

Rivojlantiruvchi (amalda bajariladigan maqsadlar)

Faoliyatning u yoki bu turlarini shakllantirish bilan bog'liq maqsadlar tegishli. Bu sohadagi maqsadlar «O'quvchi nimani bajaradi?», degan savolga javob beradi. Ushbu maqsadlar orasida yozuv ko'nikmalari, nutqiy ko'nikmalar, rasm va grafiklar orqali tasvirlash ko'nikmalari hamda jismoniy tarbiya, mehnat ta'limi doirasidagi maqsadlar joy olgan;

Tarbiyaviy (emotsional qadriyatlar, hissiyotlar sohasiga oid maqsadlar)

Idrok etish, qiziqish, ta'sirga tayyorgarlik, qadriyatlar tizimini o'zlashtirish, ularni faol namoyon bo'lishi kiradi. Soha maqsadlari «O'quvchi nimani his qiladi?», degan savolga javob beradi. Bular, qiziqish va moyillik, munosabat shakllantirish, u yoki bu his-tuyg'ularni boshdan kechirish, uni faoliyatda bajarish. Bu maqsadlarga erishishda zamonaviy interfaol metodlar, loyihalar bilan ishlash samarali natija bermoqda.

Loyihalar – bu o'quvchilar tomonidan uzoq vaqt davomida turli mavzularni mustaqil ravishda o'rganish bo'lib, bu jarayon oxirida ular o'z ishlarini taqdim etadilar.

Loyihalar ma'lum bosqichlarga ega. Barcha bosqichlarda eng muhimi – o'quvchiga o'zining ta'lim olishi uchun javob berishga ruxsat etishdan iborat.

▪ Mavzu yoki muammo.

O'qituvchi tomonidan belgilanib, sinfga tanlab olish asosida taqdim etilishi mumkin, masalan, “aqliy hujum” yo'li bilan. Masala yoki muammo o'quvchilarda bevosita qiziqish uyg'otadigan bo'lsa, yaxshiroq bo'ladi. O'quvchilar mavzuni o'rganish jarayonida “adashib” qolmasliklari uchun, masala aniq qo'yilishi lozim.

O'z navbatida, o'qituvchi loyiha ustida ishlash bo'yicha biron alohida uslubni yoki o'quvchilar o'z ishlarida qo'llashlari mumkin bo'lgan texnik moslamalarni taklif qilishi mumkin. Masalan, kompyuter yoki planshet.

▪ Rejalashtirish.

O'qituvchilar va o'quvchilar loyiha ustidagi ishlar qachon boshlanishi, qancha vaqt egallashi, qanday resurslar qo'llanilishi, ular qayerdan olinishi, o'quvchilar yakka o'zlari bo'libmi yoki guruhlarda ishlaydilar, bir xil yoki har xil mavzular bo'yichami – hal qilishlari lozim. Tadqiqotlar o'tkazish tajribasiga ega bo'lmagan o'quvchilarga guruhlarda ishlash osonroq bo'lishi mumkin. Ushbu bosqichda loyiha qanday yakunlanishini hal qilish muhim ahamiyatga ega.

▪ Material yig'ish, uslublar.

Loyiha ustida ishlash tez vaqtda turli ko'nikmalarni singdiradi. Masalan, sog'lom turmush tarziga tegishli bo'lgan tadqiqotchilik loyihasi biror hudud yashovchilari oldiga, poliklinikaga tashrif buyurishlar, intervyu, adabiyot o'rganish, fotosuratga olish, statistika ma'lumotlarini yig'ish va materialni tahlil qilish kabi jarayonlarni o'ziga kiritishi mumkin. Ijodiy loyihani bajarish uchun texnik ko'nikmalar va qobiliyatlar, masalan, videokamera bilan ishlash; transparant va plakatlarini tayyorlash

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

uchun - badiiy ko'nikmalar kerak bo'lib qolishi mumkin. O'quvchilardan tadqiqotchilik, ijtimoiy va ijodiy kabi qobiliyatlarning barchasini talab etadigan loyihalar eng yaxshi hisoblanadi. Ushbu bosqichda o'qituvchi savollarga javob berishi yoki maslahat berishi mumkin, lekin o'quvchilar o'z ishlarini bajarish uchun o'zlari javob berishlari kerak.

▪ Tadqiqot natijasi.

Bu hisobot, film, ko'rgazma, audiokasseta, ma'ruza, rasm, she'r bo'lishi mumkin. Bajarilgan ish nafaqat o'quvchilar tadqiqotlarining natijasini, balki ularning loyiha ustidagi ishlarining turli bosqichlarini ifodalashi; o'quvchilar o'rganilayotgan mavzuga nisbatan qanday hissiyotlarni boshdan kechirganlarini aks ettirishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, o'z maktablarida giyohvandlikka qarshi ko'rgazmalar o'tkazgan o'quvchilar o'zlarining ish ustidagi fotosuratlarini taqdim etishlari va qanday qilib ko'rgazmalar dizaynini tanlaganlari va tuzganlari to'g'risida yozishlari mumkin.

Ish sinfga yoki yanada kengroq auditoriyaga taqdim etilishi mumkin. Masalan, sizning tumaningizda atrof-muhitni saqlashga tegishli bo'lgan loyiha mahalliy gazetani qiziqitirib qolishi mumkin yoki hokimiyat, boshqa tashkilotlar atrof-muhitga yetkazilgan zarar tadqiq etilgan ishlarining natijalari bilan tanishishni istab qolishlari mumkin.

Baholash.

Loyihalar odatda ko'p predmetlarni qamrab olishi sababli, ehtimol, ishlarni bir necha o'qituvchilar baholashiga to'g'ri kelishi mumkin. Loyihada qo'llanilgan turli ko'nikmalar va qobiliyatlar ham baholanishi lozim, bunday baholash faqat akademik bilimlar asosida bajarilishi kerak emas.

Foydalanish doiralari

Har qanday o'quv fanida, topshiriqlar ma'lum o'quv mavzusiga va ma'lum yoshdagi o'quvchilar guruhiga moslashtirilgandan keyin.

Afzalliklari

- O'quvchilarga alohida predmetlar o'rtasidagi, maktabdagi mashg'ulotlar va tashqi dunyo o'rtasidagi aloqani ko'rishga yordam beradi.
- O'quvchilarni biron faoliyatni olib borish, o'z vaqtini rejalashtirish va jadval bo'yicha ishlash uchun o'z-o'zini tashkillashtirishga o'rgatadi.
- O'quvchilarga o'qituvchining boshchiligida ta'lim olish jarayonini boshqarishga imkon beradi.
- O'quvchilar ham bir-biri bilan, ham maktabdan tashqarida turli odamlar bilan hamkorlik qilishlari uchun imkon yaratadi.
- O'quvchilarni o'z tadqiqotlarining natijalarini va o'z fikrini ifodalash omma oldida himoya qilishga o'rgatadi va bu o'quvchilar huquqlarini targ'ib etishda muhim ko'nikma hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'quvchilarda zamonaviy, hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish uchun eng avvalo o'qituvchi oz faoliyatiga yangicha yondoshishi, medodikani yangilashi, amaliy metodikalarni qo'llashi, axborotlar bilan ishlay olishi va sohadagi har qanday o'zgarishlarga tayyor bolishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. X.A.Abdullaev, F.Yu.Xamalova. Yosh o'qituvchilar kasbiy bilim va mahoratlarini oshirishning ijtimoiy-pedagogik muammolari. F. 2008
2. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent 2008.